

OLMON TILIGA O'ZLASHGAN SO'ZLARNING LINGVISTIK TAHLILI

*X.Raximov - NamDU, fakultetlararochoet tillar
kafedrasi katta o'qituvchisi*

*Sh. Rasulova - NamDU, nemis tili yo'nalishi
4- bosqich talabasi*

Dunyoda boshqa xalqlar bilan aloqada bo'lmaydigan, alohida ajralib yashaydigan xalqlar yo'q. Xattoki Janubiy Amerika changalzorlarining odam oyog'i yetmagan joylarida yashovchi qabilalar ham qandaydir yo'l bilan tashqi dunyo bilan aloqada bo'lishlari isbotlangan. Ularning tillarida ham o'zga tillardan o'zlashgan so'zlar kuzatilgan.

Albatta, qadimda xalqlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, bosqinchilik urushlari, savdo — sotiq, diniy muloqotlari tufayli o'zaro aloqalar yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, urushlar tufayli g'olib xalq tilining mag'lub xalq tiliga, yoki aksincha, mag'lub xalq tilining g'olib xalq tiliga o'ta faol ta'siri natijasida tillarga yangi so'zlar o'zlashishi jarayoni kuzatilgan.

O'zlashtirma so'zlar til tizimiga siyosiy, madaniy, ijtimoiy – iqtisodiy kelib chiqishi asosida saylanadi. Hamma xalqlar bir – biri bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo'ladi. Bu albatta tillarning o'zaro aloqada bo'lishiga olib keladi. Hech bir o'lka yo'qki boshqa tillar bilan so'z o'zlashtirmay lug'at tarkibini boyita olsa.

Olmon tili ham bu borada istisno emas. Chunki hozirgi Germaniya xududida istiqomat qilgan qadimiy qabilalar lotinlar, fransuzlar, slavyanlar va boshqa xalqlar bilan doimo o'zaro aloqada bo'lganlar. Alohida ta'kidlash lozimki, olmon tili lug'at tarkibi rivoji tarixan uch manbaga asoslangan:

1. Qadim Hind —Yevropa leksik qatlamlaridan tashkil topgan so'zlar
2. Umumgerman tillari leksik qatlamlaridan tashkil topgan so'zlar
3. Boshqa chet tillardan o'zlashgan so'zlar qatlamlari

Olmon olimi A. Shmidtning yozishicha, hozirgi zamon olmon tili lug'at tarkibining to'rttdan bir qismi (ein Viertel der Grundwörter des heutigen Wortbestandes) Hind - Yevropa leksik qatlamidan tashkil topgan. Bu asosan inson va uning tana a'zolari nomlari, atrof — muhit, uy hayvonlari, darahklar, qarindosh-urug'chilikni ifodalovchi so'zlar qatlamidir. Masalan: *Tag, Nacht, Wind, Sommer, Ernte, Gans, Hund, Kalb, Kuh; Blume, Erbse, Birne; Neffe, Schwester, Vater, Mutter, Bruder, Enkel; bauen, beißen, binden, essen, liegen, gehen, sehen, sein; arm, dünn, tot, süß, kalt, lang, lieb, frei, gelb, neu; Zahlwörter.*

Barcha asos so'zlarning 30% ini umumgerman leksik qatlami tashkil qiladi. Bular asosan dehqonchilik, chorvachilik sohalari, dengizchilik, baliqchilik, uy —ro'zg'or buyumlari, qurol —aslaha nomlaridir. M: Brot, Fleisch, Schinken, Speck; Weiden, Herbst, Krippe, Lamm, Leder, Mähne, Ross, Tösten, Schaf, Hahn, Huhn, Henne,

Taube, Rabe, Storch, Esse, Hof; Waffe, Schwert, Schild, Helm, Friede, Feige, Zwinger va hakazolar.

Har qanday til rivojida soʻz oʻzlashtirish jarayoni katta ahamiyatga ega boʻlgani kabi, olmon tili tarixida ham bu qatlam sezilarli iz qoldirgan. Albatta, oʻzlashtirma soʻzlar salmogʻi har bir davlatning iqtisodiy, texnikaviy, madaniy va siyosiy taraqqiyot darajasi bilan uzviy bogʻliqdir. Yuqori taraqqiyot darajasiga erishgan xalq qoʻshni mamlakatlarga oʻz taʼsirini oʻtkazishi turgan gap. Yangi hodisalar, kashfiyotlar, tushunchalar va terminlar albatta qoʻshni tillarda oʻrganilgan hamda keraklari til sistemasiga qabul qilingan. Demak, oʻzlashtirma soʻzlar adadi, xususiyatlari, oʻzlashtirish darajasi turli davrlarda turlicha boʻlishi tabiiy.

Lotin tilidan oʻzlashgan soʻzlar

Olmon tili lugʻat boyligiga XVI asrga qadar boshqa Yevropa tillari singari lotin tilining taʼsiri katta boʻldi. Uch tarixiy davr oraligʻida lotin tilidan olmon tiliga koʻplab soʻzlar oʻzlashtirildi.

Birinchi davr- qadimgi germanlar davri (Germanisches Altertum). Germanlarning yerlari rimliklar tomonidan istilo qilinib, romanizatsiya (Romanisierung) german tillariga katta taʼsir koʻrsatdi. Ushbu davrda koʻplab madaniyat hamda qurilishga oid soʻzlar olmon tiliga kirib keldi. **M:** *Ziegel, Kalk, Pflaster, Mauer*; meva —sabzavot va sharob ishlab chiqarish bilan bogʻliq soʻzlar — *Birne, Wein, Pfaume, Rettich*; oziq —ovqat bilan bogʻliq soʻzlar — *Küche, Kessel, Schlüssel*; savdo — sotiqqa oid soʻzlar — *Kister, Sack* va x. k.

Ikkinchi davr — qadimgi olmon tili (frühdeutsche Zeit) davri — V asrdan VII-IX asrlar, olmon tilidagi ikkinchi undoshlar siljishi davriga toʻgʻri keladi. Bu davrda olmonlar xristianlashtirildi, birinchilardan bulib got kabilalari xristian dinini qabul qildilar. Shuning uchun ham bu davrda grek tilidan oʻzlashtirilgan liniy atamalar koʻpchilikni tashkil qiladi. **M:** *Kirche, Pfaffe, Engel, Teufel, Altar, Messe, Kreuz, Abt, Nonne, Zelle*.

Klaster, adh. Klastar, lat. Clanstrum;
 Múnster, adh. Munistr, lat. Monasteriumi;
 Mónche, adh. Munik (h), lat. Monacus
 Nonne, adh. Nunna, lat. Nonna
 Messe, adh. Missa, lat. Messa
 Kreuz, adh. Missa, lat, crux
 opfern, adh. Opfarón, lat. Operari u,a.

Oʻrta asrlardagi taʼlim tizimi oʻta ketgan diniy hususiyatga ega edi, u butunlay rim – xristianlar cherkovining hukumronligi ostida qoldi. Shunga muvofiq oʻrta asrlarda lotin tili nafaqat Yevropada balki Germaniyada ham haddan tashqari katta roʻl oʻynaydi. Lotin tili fan, maktab, cherkov va ayniqsa davlat boshqaruvining rasmiy tili edi. Olmon tili (soʻz boyligiga) lugʻat tarkibiga taʼlim sohasidagi juda koʻp soʻzlar oqib kirdi va

o'zlashtirildi. So'ngi lotin tilidan ta'limga va meditsinaga oid ushbu so'zlar o'zlashtirilgan.

Schule, adh. Scuola, lat. tincta; (maktab);
schreiben, adh. Scriban, lat. scrix; (yozmoq);
Tinte, adh. tovola, lat tincta
Tafel, adh. tavola, lat. tobula (daska);
Kreide, adh. krida, lat. creta (mel)
dichten, adh. tihtón, lat. dictare
Meister adh. meister, lat. magister (magistr)
Titel, adh. titular, lat. titulus
Fieber, adh. fibar, lat. lab. Firis (istima) u.a.

Uchinchi davr – XIV – XVI asrlar oralig'ini o'z ichiga oladi. Bu davr uyg'onish davri hisoblanib, ilm ma'rifatga qiziqish keng tus oldi. Lotin tili ushbu davrda "ilm tiliga" aylandi, ko'plab o'zlashtirilgan so'zlar ilm fan bilan bog'liq bo'ldi.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra bu davrda ilm fan ta'limga taalluqli 1571 so'z, ta'limga taalluqli 200 so'z o'zlashtirilgan: M; Doktor, Professor, Lyzeum, Abitur, Akademie, Aula, Klasse, studieren, Akten, Archiv, Konferenz, Konzept, Format, korrigieren; Advokat, Arrest Protest, adaptieren, legal va hakoza. Birinchi bor 14 asrdan asta sekin lotin tilining ta'siri yo'qolib bora boshlagan.

Grek, Lotin, Fransuz, Italyan, Ingliz tillaridan tashqati olmon tili so'z boyliklarini boyitish maqsadida boshqa tillardan so'zlar o'zlashtirilgan. Bu davlatda Ispaniya, Portugaliya, sharq mamlakatlari, Afrika mamlakatlari va Australiya hamda boshqa mamlakatlardan o'zlashtirilgan so'zlar olmon tilining rivojlanishiga, taraqqiyotiga katta foyda keltirdi. Bu davlatlarning xalqlari Germaniya madaniyatini o'rganish uchun XVII – XIX arslarda savdo – sotiq munosabatlari, geografik kashfiyotlar, har xil ekspeditsiyalar va sayohatlar qilishgan. Shuning natijasida yangi so'zlar o'zlashtirilgan. Ko'plab sayohatchilar sayohatlari yangi mamlakatlar, begona xalqlarning turli tuman madaniyatlarini, urf - odatlarini o'rganishda katta ro'l o'ynaydi. Shu yo'llar bilan olmon tiliga yangi so'zlar kirib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Умарходжаев М.И. К проблеме фразеологии. : Fremdsprachen, Leipzig. 1971, № 4.
2. Умарходжаев М.Э. Проблема типологии и вопросы фразеологии
3. A. Iskos A. Lenkova "Deutsche Lexikologie", Leningrad 1963.
4. A.Schmidt. Deutsche Wortkunde. Leipzig, 1949.

Internet ma'lumotlari:

google.de // Entlehnung.
google.uz // O'zbek-Olmon. A. Rahimov.
pedagog.uz // Olmon va O'zbek tillariga o'zlashgan so'zlar.